



OSTONOVA SANAM NEMATOVNA

**MAROSIMLAR TASVIRLANGAN
INGLIZ VA O‘ZBEK
ETNOMADANIY KONTEKSTLARINI
TARJIMADA BERISH USULLARI**



OSTONOVA SANAM NEMATOVNA

**MAROSIMLAR TASVIRLANGAN
INGLIZ VA O‘ZBEK ETNOMADANIY
KONTEKSTLARINI TARJIMADA
BERISH USULLARI**

MONOGRAFIYA

**“KAMOLOT” nashriyoti
BUXORO – 2025**

UO‘K: 811.512.133

KBK: 811.1/9

O88

Ostonova sanam nematovna, Marosimlar tasvirlangan ingliz va o‘zbek etnomadaniy kontekstlarini tarjimada berish usullari Monografiya // Buxoro “KAMOLOT” Buxoro determinanti MCHJ nashriyoti-2025 y 120 bet.

Monografiyada jahon fol’klorshunosligi, tilshunosligi va tarjimashunosligida marosimlar talqini aks etgan etnomadaniy matnlar, ularda qo‘llangan realiyalar, etnografik leksik birliklar haqida ayrim tadqiqotlarda ba’zi fikr-mulohazalar keltirilgan. Ushbu monografiyada o‘zbek marosimlari va ingliz xalqining marosimu urf-odatlarining tasviri va talqini aks etgan etnomadaniy kontekstlarning turlari, tarjima xususiyatlarini tadqiq qilish ko‘zda tutilgan. Monografiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va o‘zbek xalqlari marosimlari tizimining kelib chiqishi, taraqqiyot xususiyatlari, milliy qirralarini nafaqat qiyosiy o‘rganishda, balki ular asosida yaratilgan etnomadaniy kontekstlarning tarjimasini asliyat va tarjima orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlikka ko‘ra farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda tarjimashunoslik bo‘yicha darsliklar, o‘quv-usuliy qo‘llanmalar yaratishda, kurs va bitiruv-malakaviy ishlarini yozishda, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda, maxsus kurslar o‘tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Mas’ul muxarrir:

Radjabov Dilshod Zaripovich

Taqrizchilar:

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida professori,

Haydarov Anvar Asqarovich

Osiyo Xalqaro Universiteti

p.f.n.dotsent, Bakayev Najmiddin Bakayevich

ISBN: 978-9910-760-79-2

KIRISH

Jahondagi har bir xalqning marosimlarida uning tarixiy-madaniy an'analari, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, urf-odatlari, e'tiqodiy va axloqiy qarashlari barobarid til xususiyatlari ham aks etadiki, buni lingvomadaniy, lingvososiologik, etnolingvistik, etnofol'kloristik jihatdan asoslash zarur hisoblanadi. Buning uchun marosimlarning etnomadaniy izohi keltirilgan matnlarni va ularga tegishli badiiy kontekstlarni aniqlash marosim matnlari og'zaki nutqning bir turi ekanini, tilda har bir marosim leksikasi borligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tarjimashunosligida har bir xalqqa tegishli og'zaki va yozma ijod an'analari umumjahon sivilizasiyasidagi o'rnini asoslashga xizmat qiladigan ishlar miqdori yildan-yilga ko'payib, takomillashib bormoqda. Bu jihatdan turli xalqlarning marosim va urf-odatlari aks etgan etnomadaniy kontyektstlarga nisbatan qiziqishning ortib borayotgani alohida e'tiborni tortadi. Marosimlar tasviriga oid yaratilgan etnomadaniy kontekstlarni etnofol'kloristik, etnolingvistik, lingvokul'turologik, lingvopoetik jihatdan tahlil va tadqiq qilish, ularning bir tildan boshqa tilga o'girilishidagi muammolaru echimlarni aniqlash, qulay usullarini ko'rsatib berish esa nafaqat xalqaro adabiy va madaniy aloqalarning yanada rivoj topishi va mustahkamlanishi, balki tarjimashunoslik metodologiyasini ham boyitishga xizmat qilishi, fol'klor matnshunosligi yo'nalishini ilmiy-nazariy jihatdan taraqqiy toptirishi bilan dolzarblik kasb yetadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek marosim fol'klori namunalarining jahon ma'naviyati sahifalariga kirib borish sabablari va omillarini, ularni ingliz tiliga o'girish tamoyillari va usullarini, amalga oshirilgan tarjimalarning saviyasini maxsus o'rganish qanchalik zaruratga aylangan bo'lsa, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida asta-sekin xalqimiz orasiga kirib kelayotgan yot urf-odat va marosimlar mohiyatini ham shunchalik chuqur anglab, ulardan ogoh etish muhim vazifaga aylandi. Bunda esa til bilish, turli tizimli tillarda so'zlashuvchi aholining etnomadaniy qadriyatlarini ularning asliyat tilida o'qib anglash va boshqalarga ham tushuntirish muhimlik kasb etdi. Qolaversa, buning uchun hayotimizning barcha jabhalarida: ijtimoiy sohada, jumladan, ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarida ilmiy-amaliy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi ¹.

Marosimlarda u xos bo‘lgan xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, betakror urf-odat va rasm-rusumlari, an’anaviy qarashlari hamda e’tiqodiy ishonchlari etnofol’kloristik va badiiy-estetik mezonlar bilan aks ettirilishi tufayli bunday badiiy-etnografik matnlarning tarjimada qayta yaratilishi bilan bog‘liq xususiyatlarni, nazariy-amaliy muammolarni o‘rganish o‘zbek qiyosiy tarjimashunosligi, fol’klor matnshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi. Monografiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. – Xalq so‘zi. – 2017 yil, 8 fevral’. – №28 (6722).

I BOB. “MATN” TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

1.1.Fol’klorda “matn” tushunchasi va unda til va nutq munosabati.

Til bilan nutq orasidagi munosabatga dialektik nuqtai nazardan yondashilgandagina u haqdagi tasavvur, bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi, mukammallashadi. Haqiqatan ham, til va nutq dixotomiyasiga dialektik materializmning umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va natija kategoriyalari nuqtai nazaridan yondashsak, tilgaumumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi bevosita ko‘rib-bilib bo‘lmaydigantomonlarning, nutqqa esa xususiylik, hodisa, voqelik, natija kabi tomonlarningaloqador ekanligini ko‘ramiz.

Boshqa xalqlar singari ingliz va o‘zbek tili madaniyatida ham bu xalqlarning milliy marosimlarini ifodalovchi so‘zlar tizimi mavjud bo‘lib, alohida o‘rin tutadi va o‘zida ikkala xalq mentalitetini namoyon etib keladi. Ingliz va o‘zbek tillarining til madaniyatida, xususan, marosim leksikasida aks etadigan o‘ziga xosliklarni o‘rganish esa dolzarb vazifalardan biridir. Chunki ular marosimlar bilan bog‘liq etnomadaniy kontekstlarning hosil bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. Etnomadaniy kontekstlar barcha xalq va millatlarda har xil berilishi tufayli lingvokul’turologiyada madaniy va etnopsixolingvistika sohasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Etnopsixolingvistika muayyan an’anaga oid bo‘lgan xulq-atvorning nutqfaoliyatida qanday paydo bo‘lishini o‘rganadi, turli til egalarining verbal va noverbal fe‘l-atvoridagi farqlarni tahlilga tortadi, nutq odobi va “dunyoning rangli manzarasi”ni, madaniyatlararo aloqalarda matn lakunalarini tadqiq etadi. Ikkitillilik va ko‘ptillilikni turli xalqlar nutq odobining o‘ziga xos tomoni sifatida talqinqiladi va lingvokul’turologiya tilshunoslikdagi barcha metodlarni qo‘llay olishi bilan ajralib turadi. Aytish kerakki, rasm-rusumlarning har bir unsuri ko‘pincha ramziyahamiyatga egadir. Marosim ramzlari g‘oya va obraz muvozanatini o‘zida mujassamlashtiradi.

Ongning o‘ziga xos shakli sifatida e’tiqod, ishonch va bilish mexanizmlari (hayot tajribasi)ga tayanadi. E’tiqod refleksiya bilan qo‘llab-quvvatlanadi, shaxsning fojaviy tajribasi (o‘lim xavfi yoki yaqinlarini yo‘qotishi)ni anglab yetish orqali yuzaga keladi yoki mustahkamlanadi. Bu tajriba shaxsni o‘z hayoti va tafakkur tarzini tubdan o‘zgartirishga da’vat etadi.

“Matn” tushunchasiga munosabat, u haqdagi qarashlar tilshunos va adabiyotshunoslar orasida juda xilma-xildir. Masalan, tilshunoslar o‘rtasida tiltizimiga mansubmi yoki u nutqning hosilasimi, degan savol haligacha hal qilinmagan bo‘lsa, adabiyotshunoslar uchun matn ijodkor poetik tafakkurining hosilasidir. Lekin ko‘pchilik tadqiqotchilar, jumladan, I.R.Galperin, M.YA.Dimarskiy, G.V.Kolshanskiy, O.I.Moskalskaya, L.N.Murzinva A.S. Styern, O.B Sirotinina, N.A. Ippolitova, N.S. Valgina tomonidan ajratib berilgan bir qator tipologik xususiyatlari mavjudki, ularni umumlashtirib o‘rganish lozim. Bu xususiyatlar esa quyidagilardan iborat:

1. Matn–og‘zakimi, yozmami – qaysi shaklda bo‘lishidan qat’i nazar nutq hosilasi.

2. Matnning asosiy xususiyatining informativligi, ya’ni axborot uzatishga xoslanganidir. Axborot esa nafaqat ishlab chiqarishni, balki idrok etishni ham o‘z ichiga oladi, shuning uchun matn nazariyasining muhim jihati uni idrok etish muammosidir.

3. Matn til darajalari nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Shu munosabat bilan uni matn va gap, matn va gapning tabiati hamda munosabati asosida o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

4. Matnning umumiy nazariyasida markaziy o‘rinni tipologiya yoki matn turlarini tanlash egallaydi. Ammo uning umumiy mezonlari belgilanmagan. Jumladan, marosimlar ifodasiga qaratilgan matnlarning tabiati, o‘ziga xosbelgilari aniqlanmaganini alohida ta’kidlashga to‘g‘ri keladi.

Har qanday matn hodisasi ko‘p o‘lchovlilik va murakkabligi bilane’tiborni tortadi.

Kuzatishlarimiz marosim matnlari matnning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, “vertikal kontekst” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda ko‘pincha uning iqtibos va matn hamda prototekstning o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘lgan kontekst ekani ko‘rinadi. Masalan, quyidagi matn o‘zbeklarning “Beshik to‘yi” marosimi haqida vertikal (tik) ko‘rinishda yaratilgan bo‘lib, uning ichida gorizonta tarzda keltirilgan izohlar, ayrim so‘zlar esa bu marosim mohiyatini ochishga xizmat qilishi bilana amiyatlidir:

“Beshik tuyi – lullaby wedding baby. When the baby for the first time put into the cradle, the mother of the bride brings her daughter a new cradle with its accessories, swings, toys, bicycles, preparing food. All this she brings home of her daughter. She is accompanied by 40-50 persons. On the feast are invited exclusively women. Each comes with togora and Sarup for the newborn and wish him health, wealth and good fortune”². “Beshik to‘yi – chaqaloq beshik to‘yi. Chaqaloq birinchi marta beshikka solinganida, kelinning onasi qiziga yangi beshik olib keladi, uning aksessuarlari, belanchaklar, o‘yinchoqlar, velosipedlar va turli ovqatlar tayyorlanadi. Bularning barchasi qiz tushgan xonadonga olib kelinadi. Unga 40-50 kishi hamrohlik qiladi. To‘yga faqat ayollar taklif etiladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa har biri tog‘ora va sarpo olib keladi hamda bolaga sog‘lik, boylik va omad tilaydilar”. Keltirilgan matnda tug‘ilgan chaqaloq uchun uning onasi tomonidan keltiriladigan beshik va sovg‘a-salomlar, marosimda qatnashadigan mehmonlar haqida ma‘lumotlar berilmoqda. Bunda “beshik” so‘zi vazifasiga ko‘ra, unga yaqin bo‘lgan “cradle” so‘zi bilan berilayotgan bo‘lsa-da, ammo baribir u milliy mohiyatga ega “beshik” tushunchasini o‘zida to‘liq ifodalay olmaydi. Shu o‘rinda bu so‘z maxsus izohni talab etadi. Natijada matn ichida yana bir kichik “iqtibos matn”ga ehtiyoj seziladi. Uni matn ichida yoki ostida berishga to‘g‘ri keladi. Demak, har bir so‘z (matn) boshqa so‘zlarning (matnlarning) shunday kesishishiga olib keladi. Bunda kamida bitta so‘z (matn) ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligi ayonlashmoqda. Matnlararo havola esa unutilgan sintagmatikaga ko‘tarilib, “o‘zgartirilgan” paradigmatic element vazifasini bajaradi.

8 Turdieva S. T. Ethnografisms in Uzbek and English languages. – Termez, 2012. – P. 29.

Intertekstuallik (matnichida matnning berilishi yoki matnichiga matnning kiritilishi) shu tariqa boshqa presedent matnlarga murojaat qilishni belgilaydi. Natijada intertekstuallikning o‘ziga xos xususiyati “qayta o‘qish”, “pretekst”ni qayta talqin qilishni ta‘minlaydi.

Marosimlar talqini keltirilgan matnlar, avvalo, adabiy matn sifatidanamoyon bo‘ladi. Ular madaniy fondga cheksiz murojaat qilish va uning hodisalarini yangi madaniy kontekst bilan bog‘liq holda qayta qurish imkoniyatiga egaligi tufayli ko‘proq yaratiladi.

Aytaylik, marosim turlari haqidagi matnlarda ularga oid qo‘shimcha presedent matnlarga murojaat qilish bilan uning mazmuni

yanada boyitiladi. Yoki ularning kelib chiqishini izohlaydigan afsona eng muhim va tez-tez uchraydigan presedent matnlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga D.Kandiyoti va N.Azimovaning 2004 yilda nashr ettirilgan “The communal and the sacred: women’s worlds of ritual in Uzbekistan”⁹ maqolasida keltirilgan quyidagi matnni misol qilish mumkin: “The rites of Bibi Seshanbe (**Lady Tuesday**) and Mushkul Kushod (**Solver of Difficulties**) may be performed together or separately, either in times of difficulty (such as sickness in the family or the failure to secure a daughter's marriage) or as thanksgiving after the solution of a problem (such as the successful delivery of a child). The cult of Bibi Seshanbe, who is seen as a protector of women, is related to women's belief that she can come to their aid in their time of distress and change their lives for the better. The following tale told by an otin in Ferghana is indicative of her powers: Once upon a time seven sisters came down from heaven. Two of them were Bibi Seshanbe and Mushkul Kushod. The others disappeared and were never heard of”¹⁰.

⁹Kandiyoti D. and Azimova N.(2004) “The communal and the sacred: women’s worlds of ritual in Uzbekistan”, Journal of the Royal Anthropological Institute. Vol.10, No. 2, pp.327-340.

¹⁰ Kandiyoti D. and Azimova N.(2004) “The communal and the sacred: women’s worlds of ritual in Uzbekistan”, Journal of the Royal Anthropological Institute. Vol.10, No. 2, pp.327-340.

Yuqoridagi manbalarga ko‘rsatilganidek, 327-340 betlar

Matn tarjimasidan anglashilishicha, unda shunday deyilmoqda: “Bibi Seshanba (Xonim Seshanba) va Mushkul Kushod (Qiyinchiliklarni hal qiluvchi) marosimlari qiyin paytlarda (masalan, oiladagi kasallik yoki qizning turmushga chiqa olmaganligi kabi) ko‘pchilik bilan birgalikda yoki alohida o‘tkazilishi mumkin. Muammoni hal qilish (masalan, bolani oson tug‘ish). Ayollarning himoyachisi sifatida ko‘rilgan Bibi Seshanbaga sig‘inish ayollarning qiyin paytlarida yordamga kelishi va hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkinligiga ishonishi bilan bog‘liq. Farg‘onalik bir otin tomonidan aytilgan quyidagi ertakda uning kuchlariga ishora qilinadi. Bir vaqtlar etti opa-singil osmondan tushibdi. Ulardan ikkitasi Bibi

Seshanba va Mushqul Kushod ekan. Qolganlari g‘oyib bo‘libdi va ular haqida hech qachonboshqa eshitmabdilar”.¹¹

Keltirilgan matnda Bibi Seshanba va Mushkulkushod kabi taqvimiy marosimlarning kelib chiqishiga ishora qiluvchi matn “tale” – “ertak” sifatida e’tirof etilgan. Aslida uni “legend” – afsona deb ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘lardi. Yana mualliflar ushbu marosimlarning milliy tildagi nomini atoqli ot sifatida tarjimasiz berib to‘g‘ri yo‘l tutgan esalar-da, Bibi Seshanba ismini qavs ichida “Bibi Seshanbe (**Lady Tuesday**)” – Xonim Seshanba, Bibi Mushkulshod nomini “Mushkul Kushod (**Solver of Difficulties**)” – “Mushkullarni oson qiluvchi” tarzida izohli tarjima bilan berishlarini oqlab bo‘lmaydi.

Xuddi shuningdek, daniyalik olim Mariya Elizabet Lou ham Bibi Seshanba va Bibi Mushkulkushod marosimlari haqida ma’lumot beruvchi matnida ularga nisbatan ham o‘zbekcha “bibi”, ham inglizcha “ledi” so‘zlarini qo‘llangani kuzatiladi: “**Bibi Seshanba**, in honour of whom the **Osh Bibiyo** is held, is regarded as a protector of home and family life, and of women in particular. She is considered the aunt of Bahouddin Naqshband and the sister of another female saint, **Bibi Mushkul Kushod** (“**Lady Problem-solver**”), in whose honour another related ritual is held”.¹² (Tarjimasi: “Osh bibiyo sharafiga o‘tkazilayotgan “Bibi seshanba” xonadonva oilaviy hayot, xususan, xotin-qizlarning himoyachisi sifatida qabul qilinadi. U Bahouddin Naqshbandning xolasi va boshqa bir avliyo ayol Bibi Mushqul Kushod (“Muammo yechuvchi xonim”) ning singlisi sanaladi, uning sharafiga boshqa tegishli marosim o‘tkaziladi”).

Demak, mualliflar Bibi Seshanba va Bibi Mushkulkushod nomini, ularga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosimlarni ingliz xalqiga yanada chuqurroq tushuntirish maqsadida “Lady Tuesday” deb Bibi Seshanba nomini, “Solver of Difficulties” dea, Bibi mushkulkushod nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zma-so‘z tarjimada berishga urinib, xatoga yo‘l qo‘yganlar.

Ko‘rinyaptiki, bunda, birinchidan, barcha mualliflar “bibi” so‘zini “ledi” (xonim) so‘zi bilan beryapti. Holbuki, “bibi” va “ledi” so‘zi mazmunan bir-birini qoplay olmaydi. Negaki, tilimizda “bibi” so‘zi, asosan, keksa yoshli ayollarga nisbatan qo‘llanadi. “Ledi” so‘zi esa tilimizda mavjud emas. Xuddi “bibi” so‘zi ingliz tilida bo‘lmagani kabi “ledi” so‘zi ham bizning tilimizda yo‘q. Qolaversa, “ledi” so‘zi ingliz tilida keksa yoshli ayollardan ko‘ra, yoshroq ayollarga nisbatan

qo‘llanadi.

Ikkinchidan, Mariya Lou “Bibi Mushkulkushod” nomini so‘zma-so‘z holatda “Lady Problem-solver” dea o‘giran bo‘lsa, D.Kandiyoti bilan N.Azimovalar uni “Solver of Difficulties” deb bermoqda. Bunda “Problem” – muammo, “Difficulties” – qiyinchilik, mushkulot so‘zlariga to‘g‘ri keladi. D.Kandiyoti bilan N.Azimovalar “ledi” so‘zini Bibi Seshanbaga nisbatan qo‘llashsa-da, “Bibi Mushkulkushod”ga nisbatan qo‘llamaganlar.

Uchinchidan, o‘zbek tilida ikkita so‘z bilan ifodalanadigan avliyo ayol nomini “Bibi Mushkul Kushod” ko‘rinishida uch qismga, D.Kandiyoti bilan N.Azimovalar esa “Mushkul Kushod” dea ikki qismga bo‘lib yozgan.

Har ikkala matnda “osh”, ya’ni milliy taom nomi transliterasia usulida aslatdagidek berilgani ham e’tiborni tortadi.

Mariya Elizabet Lou o‘z matnini davom ettirib yozadi: “**Oymullos** however had to tread cautiously. An **oymullo** told me that she had once been asked to be in charge of an **Osh Bibiyo**. She refused because her husband was a member of the Party and would be kicked out if the Party heard about this.

Instead, she left for **Tahskent**. But on her way to Tashkent she suddenly

discovered that her tongue was paralysed, and that she was unable to say anything. This, she said, was a warning from **Allah** that she had to pray for those who asked her to and not to fear the authorities. And so she took the next train back to **Bukhara** in order to lead the **Osh Bibiyo** she had been asked to lead. There, in the train, she regained her ability to speak¹³. (Tarjimasi: “Ammo Oymullolar ehtiyotkor yurishi kerak edi. Bir oymullo menga bir paytlar “Osh bibiyo” siga rahbarlik qilishni so‘rashganini aytdi. U rad etdi, chunki eri partiya a’zosi edi va agar partiya buni eshitsa, haydab yuboriladi. Buning o‘rniga u Toshkentga jo‘nadi. Ammo Toshkentga ketayotib, birdaniga tili falaj bo‘lib qolgani va hech narsa deya olmayotganini payqab qoldi. Bu, dedi u, Allohning ogohlantirishi, u o‘zidan so‘raganlar uchun ibodat qilishi va hokimiyatdan qo‘rqmaslik kerakligi haqida. Shunday qilib, u o‘ziga rahbarlik qilishni so‘ragan “Osh bibiyo”ni boshqarish uchun navbatdagi poezdda Buxoroga qaytib ketdi. U erda, poezdda u gapirish qobiliyatini tikladi”.

Ushbu matnda qo‘llangan “Osh Bibiyo” so‘zi uning “Bibi Seshanba